

«YURAK ISHEMIK KASALLIKLARINI KELITIRIB CHIQRUVCHI FAKTORLAR»**Alisherov Hamidullo Fayzullo o'g'li***Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-bosqich talabasi pediatriya stomatologiya xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti***Nurmatova Nargiza Fatxullayevna****Alisherov Hamidullo Fayzullo o'g'li***Ilmiy rahbar*

Annotatsiya: *Ushbu maqolamning mazmuni shundan iboratki, hozirda odamlarning ko'pchiligi xastalanayotgan yurak ishemik kasalligi haqida ma'lumotlar jamlanmasini taqdim etishdan iborat.*

Kalit so'zlari: *arteriya, vena, yurak, qon, miokard*

Yurakning ishemik kasalligi — yurak-tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi, koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligiga, asosan, koronar tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi shu tufayli yurakning qonga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi kuzatiladi. Yurakning ishemik kasalligiga stenokardiya va uning dastlabki, muqim, nomuqim bosqichlari bo'ladi. Miokard infarkti, infarktdan keying esa kardioskleroz, aritmik tur hamda yurak yetishmovchiligi kiradi.

Yurakning ishemik kasalligi muntazam rivojlanib boruvchi og'ir yurak xastaliklaridan biri hisoblanadi. Yosh ulg'aygan sari kasallik uchrashi ko'payadi. Yurak ishemik kasalligi klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zo'rayib, dam bosilib turadi. Ko'pincha Yurakning ishemik kasalligigi zimdan kechib, bemor o'zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradilar. Odatda, yurakning ishemik kasalligining dastlabki klinik belgilaridan biri bu — zo'riqish stenokardiyasi xuruji bo'lib, jismoniy ish bajarilganda ro'y beradi. Keyinchalik kasallik uzoq davom etishi, hattoki yillab cho'zilib ketishi mumkin. Ko'pincha zo'riqish stenokardiyasiga birmuncha vaqtdan keyin tinch holatda ham kuzatiladigan tinch holat stenokardiyasi hurujlari qo'shilib borishi mumkin.

Yurak ishemiyasining kelib chiqishi va rivojlanishiga kishilarning yoshi, kasallikka bo'lgan irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, ortiqcha vaznlik, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kam harakat ya'ni gipodinamiya, jismoniy hamda ruhiy zo'riqish va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Kashandalar o'rtasida Yurakning ishemik kasalligining nisbatan ko'p uchrashi kuzatilgan. Yurak ishemik kasalligining rivojlanishida, ayniqsa, xolesterinning roli katta. Qonda xolesterin miqdorining oshishi ateroskleroza sabab bo'ladi va bu yurakning ishemik kasalligining rivojlanish xavfini oshiradi.

Yurak ishemiyasining xavfli omilini bartaraf etib bo'ladigan va bartaraf etib bo'lmaydigan turlari bor. Ko'krak qisishi ya'ni stenokardiya, miokard infarkti, insultni

bartaraf etib bo'lmaydi. Agar odam bu kasalliklar bilan bir marta og'rib o'tgan bo'lsa, Yurakning ishemik kasalligik. rivojlanish xavfi ko'proq bo'ladi. Yurak ishemiyasining dastlabki bosqichi stenokardiya bo'lsa, miokard infarkti uning eng og'ir shakli sanaladi. Stenokardiya bilan bemor uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo dastlabki davrida birinchi uch kun 20-30% bemorda miokard infarkti kuzatilishi aniq va ravshandir. Miokard infarktining klinik belgilari, odatda, stenokardiya belgilariga o'xshash bo'lib, faqat og'riq uzoqroq, kuchliroq davom etadi. Bunda dastlabki soatlardan o'lim ro'y berishi yoki keyinchalik o'ta jiddiy asoratlarni kuzatilishi mumkin. Infarktdan keyingi kardioskleroz, yurak aritmiyasi, yurak yetishmovchiligi aslida Yurakning ishemik kasalligining asoratlari: yuraktomir sistemasi kasalliklaridan bo'ladigan nogironlik hamda o'lim holatlarning asosiy sabablaridir. Yurakning ishemik kasalligi gumon qilinganda darhol bemorni kasalxonaga olib borib yotqizish darkor.

Kasallikning klinik belgilarini kasallik tarixi, bemor shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy ko'ruv, elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar, struktura elementlari kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar hamda qon tahlili, exokardiografiya va shunga o'xshash boshqa tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qo'yilishi lozimdir. Yurak blokadasi yurakning o'tkazuvchi sistemasida nerv impulslari o'tishining buzilishidan iborat. Nevrozlar tufayli yurak nerv apparati faoliyati buzilganda aritmiyalar bilan birgalikda, yurakda sirqillaydigan, sanchadigan, jazillaydigan og'riq sezgilari ham paydo bo'lishi kuzatiladi.

Ateroskleroz hamda gipertoniya kasalligi arteriyalarining keng tarqalgan xastaliklaridan bo'lib, aksariyat bemorlarda ular birga kechadi. Ateroskleroz toj tomirlaridan tashqari, aorta va uning yirik shoxlari, jumladan, buyrak arteriyasi, miya tomirlari, qo'loyoqning periferikalarini ham zararlaydi. Arterial tomirlarning yallig'lanishi — arteritlar, ko'proq infeksiyon mas, zaxm, sepsis va allergik hamda kollagen kasalliklar tufayli yuzaga kelib chiqadi.

Yurak yetishmovchiligi yurakning o'ziga yuklangan to'la funksional yuklamani bajara olmasligini ko'rsatuvchi patologik belgilar terining ko'karishi, nafas qisishi, oyoq shishib qolishi va boshqa belgilar bilan namoyon bo'ladi. biror ish qilayotganda nafas qisib qolishi patologik alomat hisoblanadi. Ko'pchilik Yurak-tomir sistemasi kasalliklari oqibatida yurak muskulining qisqarish funksiyasi hamda tomirlar devori muskul qavatining qisqarish quvvati susayadi. Natijada organizmda qon aylanishi buziladi. Bu omillarning qay biri ustun bo'lishiga qarab yurak yoxud tomir yetishmovchiligi vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaxo`jayeva. Patologik anatomiya. 2016
2. Haqberdiyev. Patologik fiziologiya. 2018